

### DISLALIYA TURLARI VA KELIB CHIQISH SABABLARI.

*Tojiboyeva Muazzam Xolmurod qizi*

*Isroilova Husniya Safar qizi*

*Ochilova Nishongul Isroil qizi*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti*

*Logopediya yo'nalishi 510-23-guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Dislaliya turlari, ahamiyati va roli haqida fikr-mulohaza yuritadi. Mazkur maqoladan Pedagogika sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar, bu sohada tahsil olayotgan talaba va magistrlar hamda mustaqil tadqiqotchilar foydalanishlari mumkin.

**Kalit so'z:** Dislaliya, Fonologik dislaliya, Artikulasion dislaliya, Merkurialis, duduqlanish, Logoped, psixologik bosim, fikrlash, xotira, nutq terapiyasi.

**Annotation:** This article reviews the types, importance and role of Dyslalia. This article can be used by specialists working in the field of pedagogy, students and masters studying in this field, and independent researchers.

**Key words:** Dyslalia, Phonological dyslalia, Articulatory dyslalia, Mercurialis, stuttering, Speech therapist, psychological pressure, thinking, memory, speech therapy.

**Аннотация:** В этой статье рассматриваются виды, значение и роль Дислалии. Данная статья может быть использована специалистами, работающими в области педагогики, студентами и магистрами, обучающимися в этой области, а также независимыми исследователями.

**Ключевые слова:** Дислалия, Фонологическая дислалия, Артикуляционная дислалия, Меркуриалис, заикание, Логопед, психологическое давление, мышление, память, логопед.

Dislaliya — bu nutqni to'g'ri talaffuz qilishda qiyinchilikka olib keladigan nutq buzilishi bo'lib, unda so'zlardagi tovushlar noto'g'ri talaffuz qilinadi. Dislaliya turli sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin va uning davolash usullari ham turlicha bo'ladi. Dislaliya turlari: Fonetik dislaliya: Bu turda tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish yoki ularni yo'qotish bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, "p" tovushini "b" deb aytish. Fonologik dislaliya: Bu turda tovushlar to'g'ri talaffuz qilinsa ham, ularni to'g'ri joyda ishlatish yoki aniqlashda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ya'ni, nutqning strukturasi xatoliklar mavjud bo'ladi. Artikulasion dislaliya: Bu turda, asosan, tildagi va og'zidagi organlar (tish, til, lablar)ning noto'g'ri ishlashidan kelib chiqadigan talaffuz muammolari bo'ladi. Miyaning va nerv tizimining buzilishi bilan bog'liq dislaliya: Miya yoki nerv tizimining kasalliklari (masalan, afaziya) tufayli yuzaga keladi va tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish holatlari kuzatiladi.

Dislaliyani davolash: Nutq terapiyasi: Dislaliya davolashda asosiy usul bu nutq terapiyasidir. Nutq terapevti tomonidan amalga oshiriladigan mashqlar yordamida bolaning talaffuzini yaxshilash va nutqni to'g'ri qurishga o'rgatish mumkin. Tovushni to'g'ri talaffuz qilish mashqlari: Tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish bo'yicha mashqlar, ayniqsa, artikulyatsiya mashqlari yordamida

tovushlarni aniq va to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish mumkin. Fizik terapiya: Ba'zi hollarda, og'iz va til mushaklarini mustahkamlash uchun maxsus mashqlar va fizik terapiya talab qilinadi. Psixologik yordam: Nutq muammolari psixologik bosim yoki o'ziga ishonchsizlikni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday holatlarda, psixologik yordam va o'z-o'zini qabul qilish bo'yicha maslahatlar foydali bo'lishi mumkin.

Tibbiy aralashuv: Agar dislaliya tibbiy muammolar (masalan, eshitish muammolari yoki tish va og'iz bo'shlig'idagi fizikal muammolar) bilan bog'liq bo'lsa, tegishli tibbiy yordam va davolanish zarur bo'lishi mumkin. Dislaliya turiga qarab, uning davolash usullari har xil bo'lishi mumkin. Eng samarali natijaga erishish uchun, vaqtida mutaxassisga murojaat qilish muhimdir. Noto'g'ri talaffuz nutq kamchiligi haqidagi birinchi ma'lumotlar qadimgi grek olimlari Plutarx, Gippokrat, Kladiya, Galen va boshqalarning ishlarida bayon qilindi. Yuqoridagi mualliflar noto'g'ri talaffuzni davolashni talab qiluvchi kasallik deb qaraydilar. Ularning fikricha, tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish til, lab, qattiq va yumshoq tanglayning zararlanishi bilan bog'liq deb ko'rsatadilar.

O'rta asrga kelib, dislaliya haqida yangi fikrlar paydo bo'lmay, qadimgi davr ilmiy g'oyalari takrorlanadi. Tarixning keyingi davrlarida (ya'ni, 16-18-asrlarda) italyan professori Merkurialis (1588), nemis fiziologi Alberxt Fon Gallerning ishlari paydo bo'ldi. Ular ham tili chuchuklikni (dislaliyani) periferik nutq apparati tuzilishidagi kamchiliklar natijasi deb qaraydilar. Merkurialis bu kamchilikni davolash usulining eng mosi deb xirurgik terapiya deb hisoblaydi. Galler esa talaffuzdagi kamchiliklarni mashqlar orqali davolash fikrini ilgari suradi. Keyinchalik bu fikr fransuz aktyori J. Talma (1764-1836) ishlarida ham o'z aksini topadi. Shunday qilib, XIX asrgacha tili chuchuklikning mohiyatini artikulyatsion organlar ishida mexanik buzilishlarga bog'lab o'rganganlar. Chunonchi, bu davrlarda tili chuchuklik "duduqlanish" deb nomlanuvchi nutq buzilishining umumiy guruhidan ajratilmagan edi. Nutqdagi talaffuz kamchiliklarini ilmiy tasnif birinchi urinishlar XIX asrning boshlarida boshlandi. Tili chuchuklik mustaqil nutq kamchiligi qilib ajratilgandan so'ng, uning tabiatini o'rganish rivojlanib bordi. 1878-yilda Koen mexanik dislaliya bilan bir qatorda funksional dislaliyani ajratib ko'rsatdi. Uning fikricha, funksional dislaliyaning kelib chiqishining asosiy sababi, bu taqlid va noto'g'ri nutqiy tarbiyadir. Shunday qilib, organik va funksional tili chuchuklikni bir-biridan chegaralashga urinishlar yuzaga keldi. Shu yillarda bulbar va psedobulbar falajlanish natijasida kelib chiqadigan nutq buzilishlari haqidagi ishlar paydo bo'ldi. Ular markaziy nerv tizimining ma'lum darajada zararlanishi oqibatida ham tovushlar talaffuzida kamchiliklar bo'lishini ko'rsatdilar. Bu ishlar nutq nuqsonlarini tushunish doirasini kengaytirdi va shu bilan nutqning tovush tomoni kamchiliklari haqidagi bilimlarni rivojlantirishga yordam berdi. 1879-yilda A. Kussmaulning "Rasstroystva rechi" kitobi bosilib chiqdi. Unda birinchi marta nutqning fonetik buzilishlari haqidagi fikrlar bayon etildi.

A. Kussmaul tili chuchuklikni organik va funksional formalarga ajratdi. Organik buzilishlarga A. Kussmaul periferik nutq apparatining rivojlanishdagi kamchiliklarni kiritadi (mexanik dislaliya).

Keyinchalik nutqning tovush tomonidagi kamchiliklar ustida Rossiyada A. Andres, Fransiyada Leguve Sherven, Germaniyada G. Gutsmanlar ishladilar. Tovush buzilishlarining xarakteri haqidagi fikrlarning rivojlanishida rus va chet el lingvistlarining, psixolog va fiziologlarning hissasi katta bo'ldi: V. A. Bogoroditskiy (1909), L. V. Herbn (1912), D. P. Yenko (1913), Boduen (1971), A. A. Shaxmatov (1915), L. V. Varshavskiy, I. M. Litvak (1935), N. I. Jinkin (1958) va hokazo. Tili chuchuklikning tabiatini o'rganish, uning xarakteri va mexanizmi jihatdan alohida turlarini ajratish, bu kamchilikni bartaraf etishning differensial usullarini ishlab chiqilishiga olib keldi.

XIX asr boshlarida tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni artikulyatsion mashqlar yordamida bartaraf etish rivojlandi (J. Telma 1817-y. Pualson 1892-y.). "Dislaliya" terminini Yevropada birinchi bo'lib Vilnyus universitetining shifokori professor I. Frank ilmiy muomalaga kiritgan. 1827-yilda chiqqan monografiyada, u bu termini umumlashtirilgan ma'noda talaffuz buzilishlarining hamma turlarini turli etiologiyalarini nomlashda qo'lladi. I. Franklin farqli ravishda birmuncha tor ma'noda, bir qancha kechroq, XIX asrning 30-yillarida shveysariya shifokori R. Shultess ham o'z ishlariga "dislaliya" terminini kiritgan. U displaliyaga faqat talaffuz buzilishlarini (artikulyatsion organlarining anatomik nuqsonlari sababli) kiritdi. A. Kussmaul tasnifida ham Shultessni shunday qarashlari ta'kidlangan, shunday displaliya tushunchasi bilan biz Gutsman ishlarida ham tanishamiz.

Polyak tadqiqotchisi V. Oltushevskiy displaliyaga talaffuz buzilishini nutq apparatini anatomik nuqsonlari bilan bog'lanmagan hollarini kiritadi. U displaliyaning ikkita formasini ko'rsatgan: funksional va eshitish qobiliyatini pasayishi bilan bog'liqlikni. Artikulyatsion apparatida patologik o'zgarishlar sababli talaffuz nuqsonlari bo'lishini u "dislossiya" termini bilan belgiladi va bu nuqsonni qaysi artikulyatsiya bo'limi buzilgan bo'lganligiga qarab to'rtta turini ajratdi: labning, tilning, tishning, tanglayning. Sobiq Sho'rolar davri logopediyasida XX asrning boshlarida displaliya tushunchasi A. Kussmaul va Gutmanning ishlaridan farq qilmasdi. Lekin 30-50-yillarda bu tushuncha amaliy o'zgarishlariga duch keldi. M.Ye. Xvatsev displaliyani tutilib gapirishning bir formasi deb ko'rdi (shu umumlashtirilgan terminga talaffuzning hamma tur buzilishlari kiritilgan). U bunga periferik nutq organining buzilishi kiritgan: suyak-kemirchak- muskullar qismlar yoki "ularning periferik innervatsiyasi", hamda periferik qulog'i og'irligi sababli tovush talaffuzining buzilishi. U 10% dan kam bo'lmagan displaliya hollari shu nuqson bilan bog'liq deb hisoblangan. M.Ye. Xvatsev displaliyani uchta formasini ko'rsatadi: nutq organlarini qo'pol anatomik nuqsonlari bo'lgan mexanik (tanglay yoriqlari, til osti yuganchasining kaltaligi); periferik quloq og'irligi, jag va tishlar anatomiyasi, shuningdek, til va tanglay, lab anomaliyasi bilan bog'liq bo'lgan organ yumshoq tanglay muskullarining bo'shlig'i, til uchi egiluvchanligining yetishmasligi, nafas chiqarayotgan havo oqimining sustligi sababli kelib chiqadigan funksional formasi va boshqalar. 50-yillarning boshlarida A.M. Smirnova katta klinik material asosida M.Ye. Xvatsev taklif qilgan tasnifdan sezilarli darajada farq qiladigan talaffuz nuqsonlari tasnifini nashr qiladi. Hozirgi davr ilmiy qarashlarning tanqidiy analizi displaliya haqida logopediyaga kiritilgan tasavvurlarni qayta qurib chiqishni talab qiladi. Kishilar o'rtasidagi muomalaning asosiy vositasi nutq hisoblanadi. Inson nutq yordamida o'z fikrini, his-tuyg'ularini izhor qiladi, hamda boshqalarning hissiyotlarini bilib oladi. Demak, nutq faoliyati aloqa o'rnatish vositasidir.

Inson nutqi tovushlari muayyan ahamiyatga egadir. 4-5 yoshli bolalarning ko'pchiligida tovushlar talaffuzi til normadagiga yaqinlashgan bo'ladi. Ayrim bolalar tovushlarni buzib talaffuz etadilar. Ular bir tovushni ikkinchi tovushdan farq qila olmaydilar, ayrim tovushlarni talaffuzda qo'llay olmaydilar, yoki nutqda boshqa tovushlarga almashtiradilar. Bu holatlar displaliya termini bilan ataluvchi nutq buzilishining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Dislaliya termini grekcha so'zdan olingan bo'lib, dis buzilish, lalia nutq degan ma'noni anglatadi. Dislaliya nutq buzilishlari orasida eng ko'p tarqalgan kamchilikdir. Ye.F. Rau ma'lumotiga ko'ra, tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar maktabgacha yoshdagi bolalarda 15-20% ni, kichik maktab yoshdagi bolalarda 5-7% ni tashkil etar ekan. M.N. Aleksandrova ma'lumotiga ko'ra Rossiyada 5-6 yoshli bolalarda sirg'aluvchi tovushlar (s, z, s) 23%, shovqinli tovushlar (sh, j) 24%, afrikat tovush (ch) 13%, "r" tovushi 26%, "l" tovushi 10%, jaranglilar 4,5%, "y" tovushi 1,5%, til orqa tovushlar 1% ko'rsatkichlarda noto'g'ri talaffuz etilishi ko'rsatiladi. M. M. Aleksayeva ma'lumoti bo'yicha 5 yoshli bolalarda sirg'aluvchi tovushlar (s, z, s) 17,3%, shovqinli tovushlar (sh, j) 60,4%, "r" tovushi 46,7%, "l" tovushi esa 7,2% tashkil etar ekan. R. Bekker ma'lumotiga ko'ra, Germaniyada



dislaliya hodisasi 5-6 yoshli bolalarning 34% uchrar ekan. K. Onezora dislaliya umumta'lim maktabi o'quvchilarining 18,5% ida kuzatilar ekan. Miloslav Zimeenning Pragadagi bolalar bog'chasida olib borgan tekshirishlariga ko'ra, dislaliya quyidagi raqamlarni tashkil etgan: 3-4 yoshli bolalarda 69%, 4-5 yoshlilarda 58%, 5-6 yoshli bolalarda 46%, 6-7 yoshlilarda esa 37%. O'zbekistonda M. Ayupova ma'lumotiga ko'ra 5 yoshli bolalarda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar 41,5%, 6 yoshli bolalarda esa 22,9% ni tashkil etadi. M. Ayupova ma'lumoti bo'yicha 5 yoshli bolalarda sirg'aluvchi (s, z) 32,1%, shovqinlilar (sh, j) 38,4%, "r" tovushi talaffuzida 60,7%, til orqa tovushlari 25%, chuqur til orqa tovushlari (q, g') 7,1%, "/" tovushi 5,4% tashkil etgan. Logoped bemor bolalarni to'g'ri talaffuz qilishga, nutq buzilishining rivojlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun tilni bir xilda bo'lgan harakatlarni shakllantirishga o'rgatadi. Nutq terapiyasi, nafas olish mashqlari bajariladi, til massaj qilinadi. Shuni ta'kidlash kerakki, logoped davolashni boshlagandan so'ng bemor uyida mustaqil ravishda shug'ullanishi ham kerak, shunda natija samarali va tezroq bo'ladi. Bemorlar bolalik davridan qunt bilan davolansa, bola 7-8 yoshga to'lguncha undan xalos bo'ladi, bu bolani ijtimoiy psixologik bosim oqibatlaridan saqlaydi. Olimlar bolaning barmoqlari, aniq harakatlari rivojlanishi uning nutqi va tafakkurining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqligini isbotlashgan. Rossiyalik olimlar Kolsova M.M. va Ruzina M.S. "Bola gapirishni o'rganadi. Barmoqlar o'yini" kitobida keltirilishicha, barmoqlar harakatlari yuqori darajada rivojlangan bolalarda nutq, fikrlash, xotira, e'tibor rivojlangan bo'ladi, bundan tashqari, maktabga intellektual tayyorgarlik yuqori bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, barmoq harakatlarning rivojlanish darajasi bolalar nutqining rivojlanish darajasiga to'g'ri keladi. Barmoqlar harakatlari erkin bo'lmaguncha bolalarda nutqning rivojlanishiga erishish imkonsiz. Bolalarda barmoqlar mashqi bo'yicha ishni 6-7 oyligidan boshlash mumkin. Har kuni umumiy uqalash va gimnastika paytida qo'llarni 2-3 daqiqa davomida yengil uqalash kerak. Rag'batlantiruvchi qo'l mashqlari besh bosqichdan iborat: Bolaning qo'lini barmoq uchidan tirsagigacha tashqi tomondan 8-10 marta silash. Barmoqlarni, bosh barmoqdan tashqari, bukish va to'g'rilash, 5-6 marta. Bosh barmoqni o'ng, chap tomonga bukish, dumaloq shaklda harakat. Kaftni faollashtirish: barmoq bilan bolaning kaftini sekin spiral ko'rinishida silash, spiral kengayib borib oxiri bola bosh barmog'ida tugaydi, 2-3 marta. Bolani qo'lining barmoq uchidan tirsagigacha tashqi tomondan 8-10 marta silash. Bolaning o'n oyligidan boshlab barcha barmoqlarini harakatga jalb qilish kerak, har xil diametrdagi koptokchalarni aylantirish, kub, doira shakldagi o'yinchoqlardan piramidalar yasash. "Lego" dan har xil jismlar yasash va shu kabilar. Bola katta bo'lib, es-hushini tanigan sari o'yinchoqlardan tashqari uy xo'jaligida foydalanadigan anjomlardan har xil o'yin shaklida: "mohir oshpaz", "mohir chevar", "bog'bon", "qo'li gul usta" yo'nalishida mashqlardan foydalanish kerak, har bir yutug'ini so'z, erkalash bilan rag'batlantirish kerak. Bu bolani o'yinchoqlardan zerikishini kamaytiradi, fikrlashini, qunt bilan ishlashini oshiradi. Barmoqlar bilan turli xil mashqlarni bajarib, bolalarning barmoqlari, qo'llarining nozik harakatlari yaxshi rivojlanishiga erishiladi, bu nafaqat nutqning rivojlanishiga foydali ta'sir ko'rsatadi, balki bolani chizishga, yozishga tayyorlaydi. Qo'llar yaxshi harakatchanlikka ega bo'ladi, elastikligi oshadi, bu yozish harakatlarini egallashni osonlashtiradi.

### Foydalangan adabiyotlar

1. M.Ayupova "Logopediya" O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent 2007
2. M.Qudratov, R.To'xtasinov "O'zbek tilida Dislaliya va uning turlari"
3. "Dislaliya vauning tashxisini qo'yish" V.V.Davydov, N.N.Smironov

# **ILM FAN XABARNOMASI**

## **Ilmiy elektron jurnali**

4. "O'qituvchining nutqiy faoliyati va dislaliya" - N.M. Belyaeva,

V.K. Zaitseva